

O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA QUSHLAR OBRAZI
VA ULARNING VAZIFALARI

Mukumova Sevara Narzullayevna

Sharof Rashidov nomidagi SamDU magistranti

Annotatsiya *Ushbu maqola o'zbek xalq ertaklaridagi qush obrazlarining semantik va funksional xususiyatlarini o'rganadi. Unda qushlar afsonaviy(mifologik) va oddiy turlarga ajratilib, ularning xususiyatlari, ramziy ma'nolari va syujetdagi o'rni tahlil qilinadi. Afsonaviy qushlar inson orzularini, ideal g'oyalarini ifodalaydi va qahramonlarga yordam beradi. Oddiy qushlar hayotiy voqelikni aks ettiradi. Maqola ertaklardagi qush obrazlarining badiiy va madaniy-tarixiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Ushbu obrazlar xalqning tabiatga munosabati, an'analari va ma'naviy qadriyatlarini mujassam etgan. Tadqiqot folkloristika uchun muhim ma'lumotlar beradi.*

Kalit so'zlar: *o'zbek xalq ertaklari, qush obrazi, afsonaviy qushlar, oddiy qushlar, Semurg', Humo, ertak badiiyati, folklor, ramz, vazifa.*

Аннотация *Данная статья изучает семантические и функциональные особенности образов птиц в узбекских сказках. Птицы разделены на мифические и обычные типы, анализируются их характеристики, символические значения и роль в сюжете. Мифические птицы выражают человеческие мечты, идеальные идеи и помогают героям. Обычные птицы отражают жизненную реальность. В статье подчеркивается художественное и культурно-историческое значение образов птиц в сказках. Эти образы воплощают отношение народа к природе, традициям и духовным ценностям. Исследование предоставляет важную информацию для фольклористики.*

Ключевые слова: *узбекские народные сказки, образ птицы, мифические птицы, обычные птицы, Симург, Хумо, поэтика сказок, фольклор, символ, функция.*

Annotation *This article examines the semantic and functional characteristics of bird images in Uzbek fairy tales. It categorizes birds into mythical and ordinary types, analyzing their characteristics, symbolic meanings, and role in the plot. Mythical birds express human dreams, ideal ideas, and help the heroes. Ordinary birds reflect the reality of life. The article emphasizes the artistic and cultural-historical significance of bird images in fairy tales. These images embody the people's attitude towards nature, traditions, and spiritual values. The research provides important information for folkloristics.*

Keywords: *Uzbek folk tales, bird image, mythical birds, ordinary birds, Simurgh, Humo, poetics of fairy tales, folklore, symbol, function.*

O'zbek xalq og'aki ijodi durdonalaridan biri bo'lgan ertaklar xalqning boy tarixi, urf-odatlar, orzu-umidlari va hayotiy tajribalarini o'zida mujassam etadi. Ertaklarda insonlar bilan bir qatorda hayvonlar, jumladan, qushlar ham muhim o'rin egallaydi. Qushlar o'zining go'zalligi, erkinligi va osmonda parvoz qilish qobiliyati bilan insonlarni qadimdan hayratga solib kelgan. Shu tufayli o'zbek xalq ertaklarida qush obrazi turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib, o'ziga xos vazifalarni bajaradi.

O'zbek xalq ertaklarida qushlar, asosan, quyidagi turlarda uchraydi:

1. Afsonaviy (mifologik) qushlar.
2. Oddiy (hayotiy) qushlar.

Afsonaviy (mifologik) qushlar. O'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari o'ziga xos obrazlar tizimiga ega bo'lib, ana shunday obrazlar qatoriga mifologik obrazlar, ya'ni xayoliy qush obrazlari ham kiradi. Mifologik obrazlar insoniyatning ibtidoiy qarashlar tizimi mahsuli bo'lgan miflar zaminida vujudga kelgan bo'lib, bunday obrazlar xalq ertaklari tizimida muhim poetik vazifa bajarib keladi. O'zbek xalq sehrli ertaklarida ko'pincha qahramonlarga yordamchi sifatida zoomorf personajlar, xususan, qushlar qiyofasida tasvirlanadigan g'aroyib jonotlar - bulbuligo'yo, anqo, semurg', murqumomo, baxt qushi kabi xayoliy timsollar ishtirok etadi. Mazkur qushlar xalq tasavvurida g'ayrioddiy qushlar bo'lib, ular insonlarga yaratuvchi tomonidan yordamchi qilib yuborilgan.

Mifologik qush obrazining kelib chiqishi haqida folklorshunos olim K.Imomov shunday fikrlarni bayon etadi: "Avesto" kitobida bir qator asotir qushlar olov shaklida naql etilgan. Shuningdek, talqinda har bir qushga mansub qo'shqanotlar ham ilohiyiashtirilgan. Shundan bo'lsa kerak, majusiylar quyosh olovini orzu qilishgan va osmon olovidan qo'shqanot qushlarga olib kelishi mumkin, degan qat'iy fikrni ma'qullashgan. O'ngsiz mushohadaga idroksiz munosabat mifologiyada ilk bor olov keltirgan qush motivining paydo bo'lishiga olib kelgan. Bu motiv transformatsiyasi jarayonida rivoj topib, taraqqiy etgan. Ammo davrlar davomida diniy funksiyani ado etgan mifologik e'tiqod evolyutsiyasining to'xtab qolib, unut bo'lishi esa yangi hodisa - afsonaga mansub namunaning shakllanishiga olib kelgan. Uning evolyutsiyasida yuz bergan olov olib kelish ehtimol atalgan taxmin esa sa'na olov atalgan asotir qushlar obrazining paydo bo'lishiga imkon bergan".⁵²

Mifologik qushlarning paydo bo'lish tarixi hayotdagi voqelikka ibtidoiy insonning o'ngsiz munosabatdan boshlangan turlicha dunyoqarash, qush kulti, kosmogonik mif, xudo haqidagi tushuncha, real qushlarga e'tibor hamda ularning har biriga xos belgilari, ovozi, sayrashi, turli xil harakat va o'zaro munosabati, uchishining ta'siri zahirida vujudga kelgan.

Ertaklarda ishtirok etuvchi qushlarning ayrimlari hayotiy, qolganlari xayoliy bo'lib, bu xil personajlar bosh qahramon faoliyatida yordamchi vazifasini ado etadi. Ana shunday qushlardan biri semurg' sharq xalqlari og'zaki ijodidagi afsonaviy qush bo'lib, u insoniyatning osmonda uchish, uzoq manzillarni yaqin qilish haqidagi orzu-umidlarning ramziy ifodasidir. Dastlab "Avesto"da "senemurg" shaklida uchraydi.

⁵² Imomov K. O'zbek folklorida Humo qushi. //O'zbek tili va adabiyoti. 2011 -yil, 5-son, 21-bet

“Semurgʻ - qahramon homiysi, gʻayritabiiy qush. U yer usti, osmon, yer osti olamini bir-biri bilan bogʻlovchi. U bosh qahramonni osmonga olib chiqib, u dunyoga olib tushadi, ayni paytda osmon dunyosidan olib tushish, u dunyodan bu dunyoga olib oʻtish vazifasini ado etadi. U ayni paytda qahramon sarguzashtida faol qatnashib yordam koʻrsatadi”.⁵³

Turkiy xalqlarda semurgʻning humo, davlat qushi, murqumomo, anqo, baxt qushi, kuntubulgʻon, bulbuligoʻyo kabi variantlari uchraydi. Semurgʻ obrazi oʻzbek xalq ertaklarida faqat ijobiy qahramon sifatida namoyon boʻlib, ijobiy qahramonning doʻsti, himoyachisi, hamrohi, uni “yetti zulmat ichidan” olib chiquvchi gʻayrioddiy qush sifatida namoyon boʻladi. Bu qush “Qahramon”, “Yaltillama sopol tovoq”, “Kenja botir”, “Rustam” kabi ertaklarda keng tasvirlangan.

“Qahramon” ertagida Qahramon ismli yigit Akvon devni topish uchun yetti zulmatdan oʻtib, Qavs shahriga borishdek murakkab vazifani bajarishida semurgʻ qushi yordamga keladi. Yaʼni Qahramon har yili bola ochadigan, lekin ajdar tufayli hech bir palaponi omon qolmaydigan semurgʻga yordam beradi, uning ikki bolasini ajdar hamlasidan asrab qoladi. Bu yaxshiligi evaziga semurgʻ Qahramonni aytgan manziliga eltib qoʻyadi va natijada u ertak soʻngida barcha maqsadiga erishadi.

“Yaltillama sopol tovoq” ertagida ham ertak qahramoni ajdarni oʻldirib, semurgʻning bolalarini ajdardan qutqaradi. Buning evaziga esa semurgʻ unga oyinayi jahonnomani topishga yordam beradi. Qushning yordami tufayli oyinayi jahonnomani va voqealar yozib muhr bosilgan voqeanomani qoʻlga kiritgan yigit hayotida tub burilish yasalib, murod-u maqsadiga yetadi.

“Kenja botir” ertagi voqealari rivojida ham semurgʻ ishtiroki namoyon boʻladi. Kenja botirning koʻrsatgan yaxshiligi, yaʼni semurgʻning palaponlarini ajdardan himoya qilishi evaziga qushning koʻrsatgan yordamiga guvoh boʻlish mumkin.

“Rustam” ertagida esa uzoq yillar farzandsizlik tufayli qiynalgan shohning kuchuk bola tugʻgan malikasi farzandini podshohga koʻrsatishdan qoʻrqib, oʻz bolasidan voz kechadi va uni daryoyi Nilga tashlab yuborishni buyuradi. Bechora yetimcha Zolga dunyoda boʻladigan barcha voqealarni biladigan, qolaversa, Zolning kelajagidan xabardor boʻlgan afsonaviy semurgʻ qushi yordamga keladi. Zol qush tomonidan parvarish qilinadi, oʻn toʻrt yoshga yetganda ilm oʻrganadi va semurgʻ yordamida ota-onasini topadi. Ushbu ertakda semurgʻning ertak qahramoniga nafaqat yordamchi homiy, shu bilan birga, davolovchi xususiyati ham koʻzga tashlanadi: “...Malika ogʻli Zolga yadilardan xotin olib beribdi. Xotini homilador boʻlib yetti oylik boʻlganda bolaning ogʻirligidan xotinning oyogʻi bir enlik yerga kiribdi, sakkiz oylik boʻlganda besh enlik yerga kiribdi. Malika yura olmay qolibdi...Vaqti-soati yetibdi. Semurgʻ boshliq qirq hukamo jam boʻlib bolani yorib olishibdi. Rustam dunyoga kelibdi. Semurgʻ boshliq qirq hukamo Malikaning roʻdasini

⁵³ Imomov K. Oʻzbek xalq nasri poetikasi.-Toshkent, 2008, 178-bet

kiyik suti bilan yuvib tikibdi. Semurg' qanotidan bir misqol qon oldirib Malikaning dimog'iga hidlatib, hushiga keltiribdi".⁵⁴

Yuqorida nomi keltirilgan ertak voqealaridan shuni anglash mumkinki, semurg' qushi ertak qahramonlarining mushkulini oson qiluvchi homiy vazifasini bajargan.

O'zbek xalq ertaklarida g'ayrioddiy murqumomo qushi ham uchraydi. Jumladan, "Murqumomo" ertagida kambag'al o'tinchi cholga o'zi go'zal deya ta'riflangan hamda noyob gavhar tuxum qo'yuvchi murqumomo qushi yordamga keladi. Bu qush chol yig'gan o'tinlar orasiga bir dona tuxum qo'yib ketadi va bu hol bir necha bor takrorlanadi. Chol esa tuxumlar tufayli boyib ketadi. Chunki gavhar tuxumning bahosi bir podsholikning yetti yillik xarajatiga to'g'ri kelar edi. Ko'rinib turibdiki, ushbu ertakdagi murqumomo qushi ham semurg' kabi xayoliy va sehrli qush bo'lib, bosh qahramonga yordam beruvchi personajdir.

Bundan tashqari, ertaklarda humo qushi ham tasvirlanadi. "Humo - baxt, tole va davlat qushi. U ilohiy qudrat sohibi, yaratuvchi xususiyati bilan farqlanadi. Semurg' va humo qush ma'nosi, bajarishi lozim bo'lgan vazifalari tipologik o'xshashlikka ega. Humo kimga soya solsa, o'sha baxtli bo'ladi. U ko'hna xalq tushunchasida muqaddas, sirli qush, baxt, tole haqidagi tuyg'ularning xayolda aks etgan in'ikosi. Shuning uchun ham bu qush humo atalgan".⁵⁵

"Qorasochxon" ertagida baxt qushi ishtiroki namoyon bo'ladi. Unda podsho vafot etsa, "baxt qushi"ni uchirib, shu qush kimning boshiga qo'nsa, o'sha kishini podsho qiladigan odat tasvirlangan. "Kambag'al qurandoz" ertagida esa humo qushi tasvirlanadiki, soyasi kimga tushsa, uning avlod-ajdodi podsho bo'ladi, agar kimda-kim o'sha qushning tovushini eshitsa, yetti pushti qutli yashaydi.

O'zbek xalq ertaklarida nafaqat bosh qahramonga foyda keltiruvchi, balki zarar keltiruvchi mifologik qushlar ham tasvirlanadi. Xususan, "Ajdar qush" ertagida "har kuni oqshom bo'lganda g'ordan chiqib, dumini bilanglatib qishloqlar ustida uchib yurar, o'shqirib odamlarni damiga tortar ekan. Uchganda quyruqli yulduzning quyrug'iday ko'ringanidan odamlar juda qo'rqar ekanlar",⁵⁶ deya ta'riflangan afsonaviy jonzot tasvirlanadi. Keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, ajdar qush insonlarda qo'rquv uyg'otib zarar yetkazuvchi salbiy personajdir.

Afsonaviy qush obrazlari ertaklarda bosh qahramonga, asosan, yordam beradi, homiylik qiladi, ba'zan zarar yetkazadi, shu bilan birga, ertak syujetining shakllanishiga xizmat qiladi. Masalan, "Bulbuligo'yo" ertagida tumshuqlari yoqutdan, oyoqlari zabarjaddan, qanotlari durri marjondan, qolaversa, sayraganda butun jahonni larzaga keltirib, simobday erituvchi deya tasvirlangan g'aroyib sehrli qush - bulbuligo'yo podshoh yasatgan qimmatbaho chinor daraxtining zabarjaddan yasalgan barglarini o'g'irlagani ertak syujeti da tugunni hosil qiladi va ertakning barcha voqealari shu asosda rivojlanadi.

⁵⁴O'zbek xalq ertaklari. 3-jild. Toshkent, 2014, 251-bet

⁵⁵ Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. Toshkent, 2008, 179-bet

⁵⁶ O'zbek xalq ertaklari. 2-jild. Toshkent, 2014, 250-bet

Oddiy (hayotiy) qushlar. Ertaklarda xayoliy qushlar bilan birga laylak, qarg'a, bulbul, chumchuq, kaptar, to'vus, bedana, to'ti va boshqa qushlar ham ishtirok etib, ular hayotiy asosga egaligi bilan ajralib turadi. Bunday qushlar hayotda mavjud bo'lsa-da, sehrli ertaklar tarkibida keltirilganda ba'zan g'aroyib xususiyatli qilib tasvirlanadi. Masalan, "Hotam" ertagida kaptarlar tilga kirib, insondek gapiradi, ya'ni ikki kaptar o'zaro suhbat qurib, bosh qahramon Hotamni sirdan voqif etadi. "Ur to'qmoq" va "Oltin tarvuz" ertaklarida esa laylak g'aroyib xususiyatli qilib tasvirlanadi. Ertak qahramonlari laylakka ko'rsatgan yordami evaziga mushkullari oson bo'ladi, ya'ni uning yordamidan foydalangan laylak keyinchalik sehrli imkoniyatlari bilan qahramonning hamrohiga va biron ezgu maqsadga erishish vositasiga aylanadi. "Ur to'qmoq" ertagida adolat ana shu yaxshilik evaziga g'alaba qozonadi. Mazkur ertakda cholga o'zi davolagan laylak tilsim buyumlar beradi, bir martagina lutf ko'rsatib qolmaydi, balki o'z sehri ta'sirini oxirigacha amalga oshirib, xiyonatni fosh etadi va jazolaydi. Bunday ertaklarda adolat qonuniy ajrim ekani voqealar rivojiga singdirilgan.

Bundan tashqari, "Burgutlar" ertagida shahzoda burgutlar yordami tufayli ezgu maqsadiga yetadi. Ushbu ertakda burgutlar kuch-qudrat timsoli sifatida tasvirlanadi.

Majoziy ma'no kasb etgan hayvonlar haqidagi ertaklarda ishtirok etgan qushlar esa tanqidiy vazifani bajaradi va bulardagi qush personajlar talqini ijtimoiy-siyosiy ma'no kasb etib, ramz yetakchi o'rin egallaydi. Jumladan, "Qarg'a bilan qo'zi", "Ikki boyqush", "Chumchuq", "Hiylagar bedana", "Tulki bilan to'vus" kabi ertaklarning qahramonlari o'zida insonlarga xos xarakter-xususiyatlarni ifodalagan va bulardagi obrazlar talqini, voqea-hodisalar tasviri, konflikt mazmunida sinfiy munosabatlar o'z ifodasini topgan. "Chumchuq" ertagida mehnatkash xalq ramzi sifatida ishtirok etgan chumchuqning aqli tufayli xalq zolim podshodan qutuladi. "Tulki bilan to'vus" ertagida esa to'vus tilkini g'aflatda qoldirib, o'z hayotini saqlab qoladi. Bu ertakda to'vus vaziyatni to'g'ri baholay oladigan va tadbirli insonlarning ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek xalq ertaklarida qush obrazi muhim o'rin egallab, ular afsonaviy (mifologik) va oddiy (hayotiy) turlarda namoyon bo'ladi. Afsonaviy qushlar insoniyatning orzulari, ideal g'oyalari va ma'naviy olamini aks ettiruvchi ramziy timsollar sifatida qadrlanadi. Ular qahramonlarga yordam berish, ularni himoya qilish va sehrli kuchga ega bo'lish kabi xususiyatlari bilan, ayrim hollarda ertak qahramonlariga zarar yetkazish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Oddiy (hayotiy) qushlar esa real voqelikni tasvirlash, adolat, yaxshilik va yomonlik kabi tushunchalarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu obrazlar xalqimizning tabiatga munosabati, madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etganligi bilan ahamiyatlidir. Ertaklardagi qush obrazlarini o'rganish folklorshunoslik, ababiyotshunoslik va madaniyatshunoslik sohalariga oid ilmiy izlanishlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shamusarov Sharustam. Tipologiya I vzaimosvyaz folklora tyurkskix i arabskix narodov. Moskva., 2010
2. Imomov K. O'zbek folklorida Humo qushi. // O'zbek tili va adabiyoti. 2011, 5-son.
3. Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
4. O'zbek xalq ertaklari. 1-jild. Toshkent: O'qituvchi, 2014.
5. O'zbek xalq ertaklari. 2-jild. Toshkent: O'qituvchi, 2014.
6. O'zbek xalq ertaklari. 3-jild. Toshkent: O'qituvchi, 2014.
7. Birds and Bird-lore in the Literature of Anglo-Saxon England. Mohamed Eric Rahman Lacey. Submitted for the degree of Ph.D., University College. – London, 2013
8. Zuhra Mamadaliyeva. Qaqnus timsoli talqinlari. Mumtoz adabiyotda qushlar obrazi. Xurshid Davron kutubxonasi. www.kh-davron.uz